Parasempatik tonus O'SOK da bronkobstruktsiyaning yagona qaytariladigan komponenti bo'lgani uchun, M-xolinolitiklar O'SOK ni davolashda birinchi tanlov preparatlaridir. O'SOK dagi M-xolinolitiklarning samaradorligi, masalan, teotropiya bromid asetilxolining ta'sirida leykotrien B4 ning chiqarilishini oldini oladi va O'SOK da neytrofillar faolligini kamaytiradi, bu esa bronx devorlarida yallig'lanishga qarshi bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

O'SOK da eng ko'p ishlatiladigan bronkodilatatorlarning ikkinchi guruhi beta-2-agonistlardir, ular tezda bronxial obstruktsiyaga ta'sir qiladi, qisqa vaqt ichida bemorlarning sog'lig'ini yaxshilaydi. Bunday preparatlarga fenoterol, salbutamol va boshqalar kabi M-xolinolitiklar bilan birgalikda preparatlar talabga ko'ra O'SOK engil darajasida va o'rta va og'ir darajalarda-doimiy qabul qilish uchun qo'llaniladi, shuningdek, B2-agonistlarni monoterapiya sifatida muntazam ravishda qo'llash tavsiya etilmaydi. Bunda masalan: aritmiya rivojlanishi kabi nojuya ta'sirlar yuzaga kelishi munosabati bilan xamrox yurak kasalliklar bo'lgan yoshi katta va keksa bemorlarda bu guruh dorilar ehtiyyotkorlik bilan foydalanish zarur [91:86-97-b.].

Metilksantinlarning (teofilin, aminofilin va boshqalar) bronkodilatatsiya ta'siri M-xolinolitiklar va beta-2-agonistlardan kam, lekin ular O'SOK qo'zishida doimiy foydalanishda yuqori samaradorlik qilmasligiga qaramay, dori birinchi ikki guruhnini samaradorligini kam bo'lganida qo'llaniladi. Metilksantin OFV<sub>1</sub> ni sezilarli yaxshilanishiga olib kelmaydi va ko'pincha nojuya ta'sirga olib keladi va davolashning terapevtik ta'siri odatda toksikga yaqin dozalarda kuzatiladi [110:45-67-b.]. Eng jiddiyi toksik ta'sirlari bo'l macha va qorincha aritmiyalaridir, shu jumladan o'lim natijalari va anamnezida epileptik tutilishlar bo'lmasa ham rivojlanayotgan katta epileptic tutqonoqlar hisoblanadi.

Kombinatsiyali dori-darmonlarni turli mexanizmlari va davomiyligi sababli

monoterapiyaga qaraganda bronkodilatatsiyaning yuqori darajasiga erishishga imkon beradi. Kombinatsiyalashgan terapiya qabul qilishi bo'yicha monoterapiyadan ustundir. Misol uchun, qisqa muddatli beta<sub>2</sub>-agonist va ipratropiyum bromidning kombinatsiyasi bir soniyali jadal nafas chiqarishni yanada yaxshilashga olib keladi va bu kombinatsiya tachifilaksiyaga olib kelmaydi. Bundan tashqari, beta<sub>2</sub>-agonist, antixolinergik va teofillining kombinatsiyasi o'pka funktsiyasi va sog'lig'ni holatini qo'shimcha yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy ingalyatcion terapiya har qanday yoshdagi bemorlarda nafas yo'li obstruktsiyasini davolashning asosiy usuli hisoblanadi. Bir qator ilmiy ishlarni ko'rsatishicha keksa yoshdagilarda dozalangan aerozol ingalyatciyalar (Dai) past samaradorlik ko'rsatadi, bu esa jismoniy zaiflik tufayli nafas olish texnikasini bajarishda qiyinchiliklar, qo'llarning harakatini va nafas olish harakatlarini muvofiqlashtirishni etarlicha bo'lmasligi, maksimal nafas olish darajasigacha nafas ololmasligi bilan izohlanadi.

Bronxolitik terapiyani modifikatsiyasi quyidagi vareantlarni o'z ichiga oladi: beta<sub>2</sub>-agonistlar (salbutamol) speyser bilan dozalangan ingalyator yordamida har 0,5-2 soatda 6-8 ta nafas olish; beta<sub>2</sub>-agonistlarining nebulizer orqali har 0,5-2 soatda takroriy ingalatsiyasi; 0,1-0,5 ml miqdorida adrenalin yoki terbutalinning teri ostiga yuborish; ipratropium bromid ingalatsiyasi speyser bilan dozalangan ingalyator yordamida har 3-4 soatda 6-8 ta nafas olish yoki ipratropium bromid (0,5 mg) eritmasi nebulizer orqali har 4-8 soatda qullaniladi. Antixolinergik preparatlarning beta<sub>2</sub>-agonistlari bilan kombinatsiyasi ta'siri o'zoq va turli mexanizmlar bo'lganligi sababli yanada samarali va O'SOK qo'zishi sonini aloxida dori vositasiga qaraganda ko'proq kamaytiradi.

O'SOK og'ir quzishida teofillinni vena ichiga yuborish davolashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Teofilin tomir ichiga tomchilab yuborilganda dastlab "to'yinganlik" dozasi 5 mg/kg (agar bundan oldin bemor sekin chiqariladigan teofillin mikrokristal preparatlarini qabul qilmagan bo'lsa), so'ngra doimiy tomir ichiga infuzion shaklida (teofillin plazma kontsentratsiyasini kuzatish juda kerak; optimal - 10-12 mg/l)

0,2-0,5 mg/kg / soat dozada ushlab turuvchi rejimiga o'tish lozim.

Glukokortikoid gormonlarni tayinlash ko'pincha aniq klinik ta'sir bilan tavsiflanadi. Klinik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, glyukokortikoidlar tizimli qo'llanilganda O'SOK qo'zishining birinchi 72 soatida o'pka funktsiyasini yaxshilashini tezlashtiradi [110:45-67-b.]. Biroq, glukokortikoidlar bilan davolash kurslarining davomiyligi 14 kundan oshsa hipotalamus-gipofiz-bo'yrap usti bezi tizimiga tajavuz qilish xavfi mavjud va O'SOK og'ir shakllari bo'lgan bemorlarda mushaklarning kuchsizligi, funktsional faolligi pasayishi va nafas yetishmovchiligining rivojlanishiga yordam beradigan steroid miyopati xavfini sezilarli darajada oshiradi. O'SOK og'ir qo'zishida vena ichiga metilprednizolon (har 6-8- soatda 0,5 mg/kg) yoki gidrokortizon (har 6 soatda 100-250 mg) yuborish afzal. Steroidlar dozasi O'SOK og'ir qo'zishisinin klinik simptomlari stabilizatsiya yoki mo'tadil regressga erishilgandan so'ng, davolashni uchinchi kunidan boshlab, steroid dozasini asta-sekin kamaytirish mumkin.

Antibakterial terapiya faqat O'SOK qo'zishidavrda amalga oshiriladi. Xozirgi vaqtida O'SOK infertcion qo'zishida antibakterial davolash o'tkazish asosan uch guruh preparatlar ishlatiladi: B-laktam (penitsillin va sefalosporinlar), makrolidlar va respirator ftorxinolonlar. Mikroorganizmlar qarshilik yuqori darajada bo'lgan hududlarda O'SOK ayrim hollarda ishlatiladigan dori effektini yitishmasligi yoki yo'qligi antibakterial davolashda muammo bo'lishi mumkin. Shuning uchun Rossiyada 10% dan oshmaydigan mintaqaviy chidamlilik darajasiga e'tibor qaratish kerak.

Keng miqyosli farmakoepidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bemorlarning 39 foiziga O'SOK qo'zishida ximoyalangan penitsillin (amoksitsillin/klavulan kislotasi) buyuriladi. Antibakterial preparatlarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga ixtisoslashgan JSST mutaxassislarining maxsus guruhi Amoksitsillin/klavulan kislotasini O'SOK davolashda tanlangan dori sifatida tavsiya qiladi (JSST, 2014). Amoksitsillin + klavulan kislotasining klinik samaradorligi makrolidlar bilan solishtirganda ushbu dorilarning yuqori eradikatsiya qobiliyatiga bog'liq. O'SOK qo'zishida asosiy etiologik jihatidan muhim qo'zg'atuvchilariga nisbatan antibakterial

faollikning optimal spektri respirator ftorxinolonlarda yuqoridir. Respirator ftorxinolonlarining optimal farmakokinetik xususiyatlari og'iz orqali qabul qilishda amaliy to'liq biodostuplik, qulay dozalash rejimi egaligi va klinik jihatdan dorilarni o'zaro ta'sirlarining yo'qligi sababli ta'minlanadi. Ftorxinolonlar guruhidagi preparatlар shifoxonadan tashqari nafas yo'llarining infektsiyalari uchun empirik terapiya vositasi sifatida ishlatalishi kerak. Agar ambulatoriya bosqichida antibakterial davo o'tkazilsa va ular samarasiz deb hisoblansa, shifoxonada "ikkinchi qator" preparatlari sifatida sefalosporinlar II (sefuroksim) yoki III (sefotaxim, seftriakson) avlodи, "yangi" makrolidlar (azitromitsin, klaritromitsin) yoki ftorxinolonlar (siprofloksatsin, ofloksatsin) qo'llaniladi.

Keksa yoshdagilarda antibiotikning farmakokinektikasiga ta'sir qiluvchi yana bir omil buyrak va jigar funktsional buzilishlari mavjud bo'lgan turli xil xamrox kasallikkardir. Yashirin (manifest) patologiyasi (surunkali buyrak yetishmovchiligi, jigar funktsiyasi buzilishi va boshqalar) bilan bir qatorda, antibiotiklarni eliminaciyasi va metabolizmga ta'sir qiluvchi buyrak va jigarlarda yoshga xos morfofunktional o'zgarishlarni ham hisobga olish kerak. Ma'lumki, yoshi kattalarda koptokchalar filtratsiya ko'rsatkichlarining pasayishi kuzatiladi. Surunkali buyrak yetishmovchiligi bo'lgan keksa bemorlarda antibakterial preparatlarni tanlashda jigarda (makrolidlar, sefoperazon) metabolizmga uchraydigan yoki eliminaciyani (siprofloksatsin) ikki yo'li bo'lgan antibiotiklarni tayinlash afzaldir.

O'SOK og'ir qo'zishida bemorni olib borishning zaruriy choralariga, shuningdek, oziqlanish va suv muvozanati monitoringi, yurak yetishmovchiligi, yurak ritmi buzilishi va boshqalar kabi xamrox patologik holatlarni aniqlash va korrektciyalash kiradi. Uzoq muddatli yotoq rejimini, suvsizlanishni, rivojlanayotgan polisitemiyani, venoz trombozning mumkin bo'lgan xavflarini va o'pka arteriya shoxining tromboemboliyasini hisobga olgan holda heparinoterapiya o'tkazishni hisobga olish lozim.

O'SOK bilan xastali bemorlarni davolashda mukolitik dorilar keng qo'llaniladi, ularning asosiy terapeutik ta'siri nafas yo'llarining epithelial hujayralari chiqaradigan

shilliq glikoproteinni tarkibini va miqdorini o'zgartirish orqali patologik yopishqoq sekretsiyani bevosita suyultirishdan iborat. GOLD dasturida O'SOK da mukolitiklarni keng qo'llash tavsiya etilmaydi va kasallikning barqaror bosqichida yutalga qarshi preparatlarni muntazam ravishda ishlatish qarshi ko'rsatma xisoblanadi.

Bemorlar uchun ta'lif dasturi kasallikning qo'zishida bazis terapiya qo'llashga yunaltirilgan tadbirlarni o'qitish maqsadida o'tkaziladi.

O'SOKni dori-darmon bilan davolash YQTT funktsional tekshirish bilan birgalikda kompleks tarzda amalga oshirildi. Davolash etiologik omillarni bartaraf etish bilan boshlanadi: bemor chekish, spirtli ichimliklarni to'xtatish, psixogigienaning o'ziga xos rejimiga, sog'lom turmush tarziga rioya qilish kerak.

Sedativ sifatida valerian va arslonquyruq o'ti, valokordin, corvalol ishlatilagi. Ushbu dorilar taxikardiyani kamaytiradi va antiaritmik ta'sirga ega.

Barcha bemorlarga YQTT o'zgarishining tabiatiga qarab davalovchi ovqatlanish buyuriladi. Shu bilan birga, tananing energiya sarfini hisobga olgan holda, markaziy asab tizimini va YQTT ni kuchaytiradigan mahsulotlarni (kuchli go'sht va baliq sho'rva, achchuq choy, qahva), qorin damlshiga, gazni hosil qilishni ko'chaytiruvchi (loviya, no'xat, gazlangan ichimliklar va boshqalar) iste'mol qilish biyrilmaydi; Sutkada 1-3 g gacha osh tuzini iste'mol qilishni kamaytirish, oziq-ovqat mahsulotlarini to'yinmagan yog'lar, magniy, kaliy o'z ichiga olgan maxsulotlar bilan boyitish tavsiya etiladi.

Dori-darmonlarni tanlash mezonlari, uning samaradorligi O'SOK bilan xasta bemorlarda YQTT funktsional tekshirishining farmakologik kompensatsiyasi asosida baholanadi. Shu bilan birga, O'SOK bazis terapiyasi fonida kardiovaskulyar tizimdagи o'zgarishlarni ifodalanishiga qarab, ularda dorilar korrektciyasi amalga oshiriladi. Avvalo, bu korrektciya miyokard metabolizmini yaxshilaydigan dori vositalaridan foydalanishga asoslangan: tivortin 4,2% -100,0 ml v/ i, riboksin 2% - 10,0 v / I – 10 kun; mildronat 10,0, v / i – 10 kun; ATF 1% -1,0 m / o – 20 kun; kokarboksilaza 0,05 m / o – 20 kun, lipoat kislota 0,025 x kuniga 3 marta, 1 oy.

Gipotenziv terapiyada quyidagi dorilar alohida tanlangan: kaltsiy antagonistlari (nifedipin 0,01 1 tab. x kuniga 3 marta, amlodipin 0,005 1 tab. x kuniga 2 marta) va APF ingibitorlari (captopril 0,025 1 tab. x kuniga 3 marta; enalapril 0,005 1tab. x kuniga 2 marta). Kaltsiy antagonistlari antiaritmik vositalar sifatida ishlatiladi (verapamil 0,04 1 tab. x kuniga 2 marta) va kaliy preparatlari (panangin 1 tabletkada x kuniga 3 marta, asparkam 1 tab. x kuniga 3 marta). Antianginal ta'sir uchun nitratlar ishlatiladi (nitrosorbit 0,01 1 tab. x kuniga 3 marta, nitrogliserin 0,005 extiyoj bo'yicha).

## **O'SOK qo'shma patologiyasi bilan xasta bemorlarni olib borish algoritmi**

**I.** Kompleks klinik va instrumental tekshirish.

**II.** Ustun klinik-instrumental sindromni davolash va ajratish:

- Bronxoobstruktsiya: kislorodli terapiya, bronxodilatatorlar, balg'am xaydovchilar;
- Koronar yetishmovchilik: nitratlar, kalsiy antagonistlari, kislorod terapiyasi;
- Yurak yetishmovchiligi: APF ingibitorlari, diuretik, b-blokatorlar (diqqat bilan nazorat ostida);
- O'pka gipertenziyasi: kaltsiy antagonistlari, kislorod terapiyasi;
- Arterial gipertenziya: kalsiy antagonistlari, APF ingibitorlari.

**III.** Davolashning ta'sirini kompleks baholash, salbiy reaksiyalarni aniqlash, tayinlaganlarni korreksiyalash.

Qo'shma patologiyani tashxislash va davolash muammosi juda dolzarb bo'lib qolmoqda. Muayyan kasallikning klinik ko'rinishida ustunlik ko'pincha xamrox patologiyaning hipodiagnostikasiga olib keladi. O'SOK va YIK gipodiagnostikasi (autopsisga ko'ra) 40% ga etadi. Xamrox patologiyaga ega bo'lgan bemorlarni olib borishda shifokordan patologiya asoslari, klinik farmakologiya xaqida chuqr bilim,

klinik vaziyatni diqqat bilan tahlil qilish, terapiyaning maqsadlarini aniq belgilash xususiyatlarini va kuzatilishi mumkin bo'lgan yaqin natijalarni oldindan bilish qobiliyatini talab qiladi.

Shunday qilib, xozirgi vaqtda yurak-qon tomir tizimidagi funksional o'zgarishlarni o'rganish, O'SOK da asoratlarni rivojlantirish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarbdir.

## **2-BOB. TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI**

Tadqiqot Samarqand shahar tibbiyot birlashmasining pulmonologik bo'limida O'SOK tashxisi qo'yilgan 80 ta bemorni o'rganishga asoslangan. O'SOK tashxisi JSSTning xalqaro tasnifiga (XKT-10, X ko'ruvi) va GINA 2012 diagnostik mezonlariga muvofiq O'SOK shakllari va kasallikning og'irlilik darajasini hisobga olingan holda qo'yildi. Tekshirishda qatnashgan bemorlar orasida erkaklar 28 nafar, ayollar 52 nafar bo'lib, ularning yoshi 18 - 89, o'rtacha 49,8 yoshdan iborat.

O'SOK tashxisi va uning og'irlilik darajasi GOLD (2014) dasturida ko'rsatilgan mezonlarni hisobga olgan holda kasalliklarining xalqaro tasnifi 10-qayta ko'ruvi (XKT-10) ga muvofiq qo'yildi.


Tashxisni shakllantirishda anamnezida surunkali nafas olish simptomlari (yo'tal,

balg'am ajralishi, nafas qisilishi, o'ng qorincha yetishmovchiligining simptomlari) mavjudligi yoki yo'qligi, ob'ektiv tekshirishlar ma'lumotlari - qattiq nafas, nafas qisilishi, perkutor va auskultativ ma'lumotlar, JNCHX<sub>1</sub> ning 60% dan kamroq pasayishi va JNCHX<sub>1</sub> ning O'TS ga nisbati 70% dan kam bo'lgan spirogramma ko'rsatgichilari xisobga olindi.

Bemorlarni tadqiqot natijalari 2 guruhga bo'lindi.

1 guruh - yurak-qon tomir kasalliklarning shakllanishi va rivojlanishida o'zgarishlari bo'lgan O'SOK bemorlar - 58 kishi;


2 guruhi - yurak-qon tomir kasalliklarning shakllanishi va rivojlanishida o'zgarishsiz O'SOK bemorlar-22 kishi.



## **2.1-Rasm. Bemorlar guruhanishi**


Nazorat guruhi yoshi va jinsiga mos keladigan 22 nafar amaliy sog'lom shaxslarni tashkil etadi.

Bizning tadqiqotlarga ko'ra, O'SOK bilan xastalangan bemorlarda kasallikni maksimal soni stagi 15 yildan ortiq bo'lganl birinchi guruxda -28 kishida, ikkinchi 11 - 14 yilgacha bo'lganlar guruhida-20 kishida, uchinchi 7-10 yilgacha bo'lganlar guruhida-15 kishida va to'rtinchi o'rinda 5-6 yil bo'lganlar guruhida -10 kishida, beshinchi o'rinda 1- 4 yilgacha bo'lgan guruhda-5 kishida va oltinchi o'rinda bir yildan kamroq guruhda - 2 kishida kuzatildi. (1-rasmga qaralsin.).



**2.2-rasm. Yurak-qon tomir kasalliklarning shakllanishi va rivojlanishida o'zgarishlari bo'lgan O'SOK kechish davomiyligi.**

O'SOK ko'pincha quyidagicha asoratlandi: nafas olish yetishmovchiligi - 40 holatda, pnevmoskleroz - 30 holatda, o'pka emfizemasi-25 holatda; o'pka yurak – 10 holatda; bronxoektaz – 5 holatda. Bu asoratlarning barchasi yurak-qon tomir tizimining funktsional holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



**2.3-Rasm. O'SOKning ko'p uchraydigan asoratlari**

Biz tadqiqot paytida, klinik simptomlari ifodalanishi, bemorlarning holatini ogirligini baholashda qulaylik uchun, biz joriy qilgan uch balllik shkala bo'yicha indekslarini sanash o'tkazildi: 0 – yo'q, 1 – sezilarli, 2 – o'rtacha, 3-ifodalangan va so'ngida kumulyatif indeksi (KI) sanalgan.

Barcha bemorlarga keng qamrovli klinik va laboratoriya tekshiruvi o'tkazildi: umumiyligida qon, siydik, balg'am va instrumental tekshirish usullari: o'pkaning rentgenologik tekshiruvi, tashqi nafas funktsiyasi, elektrokardiografiya, exokardiyografiya.

Tashqi nafas funktsiyasi (TNF) SPIROSIFT SP-5000 "Fukuda denshi" apparatida amalga oshirildi. O'pkaning tiriklik sig'imini aniqlash (O'TS), maksimal o'pka ventilyatsiyasi (MO'V), nafas olish soni (NS), 1 soniyada jadal nafas chiqarish xajmi ( $JNCHX_1$ ) ko'rsatkichlarini tahlil qilish bronxial o'tkazuvchanlik buzilishlarining mavjudligi va ifodalanganligini, shuningdek, restriktiv buzilishlarni aniqlashga imkon berdi.

TNF ko'rsatkichlarini o'rganish natijalarini talqin qilish 3-jadvalda keltirilgan.

## **2.1-jadval**

### **SPIROGRAFIK TEKSHIRISHLAR KO'RSATKICHLARINI TALQINI**

Ko'rsatkichlar	Talqini
JNCHX <sub>1</sub> (1 soniyada jadal nafas chiqarish xajmi)	
> 80%	Norma
50-80%	Obstruktsiya o'rta darajasi
30-50%	Og'ir obstruktsiya
< 30%	Juda og'ir obstruktsiya
$JNCHX_1$ ni O'TS ga nisbati	
$\geq 70\%$	Norma
61-69%	Biroz obstruktsiya
45-60%	Obstruktsiya o'rta darajasi
< 45%	Kuchli obstruktsiya
O'TS	

$\geq 81\%$	Norma
66-80%	Minimal restriktsiya
51-65%	O'rtcha restriktsiya
$\leq 50\%$	Ifodalangan restriktsiya

Klinik tekshirishlar va TNF tekshirishlar natijalariga ko'ra, O'SOK bilan xasta bemorning holatini baholashning multiparametrik tizimi bo'lgan BODE indeksini hisoblab chiqish o'pka patologiyasida o'lim xavfini taxmin qilish imkonini beradi [100:5-9-b.]

BODE indeksini baholash uchun quyidagi to'rtta parametr bo'yicha tekshirishlar o'tkazildi:

- 1) " B " – tana massasi indeksini hisoblash.

$TMI = m/h^2$ , bu erda m – tana massasi kilogrammda, h – tana uzunligi metrda.

2) " O " - o'pka ventilyatsiyion funktsiyasini obstruktiv buzilishlarini baholash ( $JNCHX_1$ ).

3) " D " - nafas qisishni ifodalash darajasi.

4)" E " - 6 daqiqali yurish bilan testda o'rnatilgan jismoniy zo'riqishlarga chidamlilik.

Nafas qisishni ifodalash darajasi baholash uchun Medical Research Council (MRC) Dyspnoea Scale nafas qisish shkalasidan foydalaniladi ( 4- jadvalga qaralsin.) [43:40-45-b. ,56:343-b.].

## 2.2-jadval

### Medical Research Council (MRC) Dyspnoea Scale nafas qisish shkalasi

Daraja	Og'irligi	Tavsifi
0	Yo'q	Faqat juda kuchli zo'riqishlarda nafas qisilishi
1	Yengil	Tez yurish, balandlikga biroz ko'tarilganda nafas qisilishi/

2	O'rtalik	Nafas qisilishi o'sha yoshdagi odamlarga qaraganda sekinroq yurishga majbur qiladi
3	Og'ir	Nafas qisilishi har 100 metrda yurishni to'xtatishga olib keladi
4	Juda og'ir	Nafas qisilishi uydan tashqariga chiqishga imkon bermaydi yoki kiyimni almashtirishda paydo bo'ladi

Enright & Sherill, 1998 (Enright PL, Sherill DL 1998) standart bayonnomaga muvofiq 6 daqiqali yurish testi amalga oshiriladi.

Indeksni hisoblash olingan ballarni yig'ish yo'li bilan amalga oshirildi (5-jadvalga qaralsin.).

### 2.3-jadval

#### BODE indeksini hisoblash uchun ishlataladigan turli parametrlarning qiymatlari va ularga mos keladigan ballar

Ko'rsatkichlar		BODE ballari			
		0	1	2	3
B	Tana massasi indeksini	>21	<21	—	—
O	JNCHX <sub>1</sub> %	>65	50-64	36-49	<35
D	MRC nafas qisish shkalasi	0-1	2	3	4
E	6 daqiqali yurish testi distantsiyasi, m	>350	250-349	150-249	<149

BODE indeks ko'rsatkich asosida O'SOK da bemorlarning yashovchanligini proqnoz qilish mumkin. Shunday qilib, O'SOK bo'lgan bemorlarning to'rt yillik yashovchanlik darajasi: 80% 0 dan 2, 70% gacha-3-4, 60% da-5-6, 20% - 7-10 ballarda.

Rentgenologik tekshiruv umumiy qabul qilingan usullar bo'yicha amalga oshirildi

va ko'krak qafasi rentgenoskopiyasi va rentgenografiyasini o'z ichiga oldi.

Elektrokardiografiya umumiy qabul qilingan usul bo'yicha amalga oshirildi. EKG tekshirish bemorlarni dastlabki tekshirishda va dinamikada o'tkazildi.

Exokardiyografiya umumiy qabul qilingan usul bo'yicha amalga oshirildi. Yurak devoir, to'siq va klapanlar holati, shuningdek, yurak bo'shlig'ining hajmi va o'lchami, qorincha devorining qalinligi, yurakning sistolik funksiyasi parametrlari (zarba va daqiqali hajmlar), qon xaydash fraktsiyasi va boshqalar baholandi.

Bundan tashqari, O'SOK kasalliklarida pulsoksimetriya bajarildi va quyidagi parametrlar baholandi: kislorod saturatsiyasi vaqtি (time SpO<sub>2</sub> <88%), o'rtacha puls (avg. Pulse).

Siyanozi mayjud va nafas qisilishi ortib borayotgan bemorlarda qonning gaz tarkibini o'rganish kerak. Shu bilan birga, haqiqiy imkoniyatlardan kelib chiqish zarur: ko'plab tibbiyot muassasalari, birinchi navbatda, poliklinikalar qimmatbaho gaz analizatorlariga ega emas va bu ishlarni amalga oshira olmaydi. Bunday holatda bemorlarda gipoksemyani va qonni kislorod bilan to'yinganligini aniqlash imkon mumkin bo'lgan yanada qulay qurilmalar (puls oksimetrlar) sotib olishdan iborat. Bu O'SOK bilan xasta bemorlarni maxsus guruhi bo'lib, odatda uzoq muddatli kislorod terapiyasini talab qiladi. (9-jadvalga qaralsin.).

SpO<sub>2</sub> ko'rsatkichlari normada 80-100 mm. Hg. Ust. bo'lgan qondagi kislorodning partsial bosimi (PaO<sub>2</sub>) bilan bog'liq. PaO<sub>2</sub> ning pasayishi SpO<sub>2</sub> pasayishiga olib keladi, lekin chiziqsiz xarakterli bog'liqlik bo'ladi.

- PaO<sub>2</sub> ni 80-100 mm sm ustuni SpO<sub>2</sub> ni 95-100% ga mos keladi.
- PaO<sub>2</sub> ni 60 mm sm ustuni SpO<sub>2</sub> ni 90% mos keladi.
- PaO<sub>2</sub> ni 40 mm sm ustuni SpO<sub>2</sub> ni 75 % gacha mos keladi.

### **Natijalarni statistik qayta ishlash**

Olingan natijalarning barcha statistik ishliv berishi parametrik va parametrik bo'limgan tahlil usullari yordamida bilan Microsoft Excel 2010 dasturi bilan ta'minlangan "statistik for Windows 10" (StatSoft) dasturlari to'plami yordamida bajarildi. Tekshirish namunalarni natijalari  $M$  (o'rtacha)  $\pm m$  (standart xato) ko'rinishda taqdim etilgan parametrik usullardan foydalanilindi. Olingan natijalarning ishonchliligi bog'liq va bog'liq bo'limgan namunalar uchun Student ( $t$ ) mezonlari bo'yicha baholandi, farq  $p < 0,05$  da statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

### **3-BOB. XUSUSIY TADQIQOT NATIJALARI.**

#### **O'SOK BEMORLARIDA KLINIK VA LABORATORIYA O'ZGARISHINING XUSUSIYATLARI.**

Barcha bemorlar kasallikning quzish davrida tez tibbiy yordamga murojaat qilishadilar. O'SOK bilan xastalanganlarni 85% da kasallik qo'zish davrida Yurak-qon tomir kasalliklari bor bemorlarda o'zgarishlar kuzatiladi.

O'SOK bilan xastalanganlar tekshirilganda 58 nafarda nafas olish tizimi tomonidan Yurak-qon tomir kasalliklar patologiyaning yuzaga kelishi kuzatildi. Bundan tashqari, biz tekshirgan 22 nafar bemorlarda Yurak-qon tomir kasalliklari patologiyasi aniqlanmadи.

#### **3.1- jadval**


##### **Bemorlarning og'irlik darajasi va nozologik shakllari bo'yicha taqsimlanishi**

Nozologiya	Shakli	O'SOK		O'SOK YQTKSHvRsiz	
		YQTKSHvR bilan	erkak	ayol	Erkak
O'SOK yengil darajasi	Emfizematoz				
	Bronxitik				
O'SOK o'rta darajasi	Emfizematoz	2	18	1	3
	Bronxitik	8	10	2	4
O'SOK og'ir darajasi	Emfizematoz	6	4	1	1
	Bronxitik	6	10	2	2
Jami		22	42	6	10
		64		16	

**Eslatma – YQTKSHvR'-** yurak-qon tomir kasalliklarning shakllanishi va rivojlanishida

Tekshirilgan bemorlarning o'rtacha yoshi 49.8 ga teng bo'ldi. Asosiy guruhdagи

erkaklar 28 kishi (35%), ayollar -52 kishi (65%). Nazorat guruhida erkaklar 15 kishi (25%), ayollar -45 kishi (75%).



### **3.1-rasm. Nazorat guruhi.**

GOLD (2014) tasnifiga ko'ra, bemorlar O'SOK bosqichlari bo'yicha quyidagicha taqsimlandi: II bosqich - 30 kishi( 37.5%), III bosqich - 50 kishi (62.5%). O'SOK I bosqichi bilan xasta bemorlar aniqlanmadi.

YQTKSHvR bo'lganda va YQTKSHvR bo'limganda davolashdan so'ng O'SOK klinik simptomlari dinamikasini tahlil qilinganda (7-jadvalga qaralsin), O'SOK YQTKSHvR bilan bo'lganda o'rtacha og'ir kechishida 25,8% (2,6+0,2dan 1,9+0,2 gacha), O'SOK YQTKSHvR bilan bo'lganda og'ir kechishida 20% (2,5+0,1 dan 2,0+0,2 gacha), O'SOK YQTKSHvR siz bo'lganda o'rtacha og'ir kechishida 18,2% (2,2+0,2 dan 1,5+0,2 gacga), O'SOK YQTKSHvR siz bo'lganda og'ir kechishida 13,6% (2,2+0,2 dan 1,9+0,2 gacga) bug'ilish xurujilari kamayishi kuzatildi. Xuddi shu tendentsiya davolanishdan keyin yo'tal dinamikasini tahlil qilishda kuzatiladi. O'SOK YQTKSHvR siz bo'lganda o'rtacha og'ir kechishida 23 (2,4+0,2 dan 1,9+0,2 gacha), O'SOK YQTKSHvR bilan bo'lganda o'rtacha og'ir kechishida 31.4% (2,6 + 0,1 dan 1,8 + 0,2 gacha) yo'tal kamaydi.

### 3.1-Jadval

#### O'SOK bilan xasta bemorlarda davolashdan oldin va keyin klinik belgilarning umumiy xarakeristikasi (ballarda).

№	Klinik belgilari (ballarda).	Davolash	O'SOK o'rtacha og'ir kechishi (n=21)	O'SOK og'ir kechishi (n=39)		
			O'SOK YQTKSHvR siz (n=7)	O'SOK YQTKSHvR bilan(n=14)	O'SOK YQTKSHvR siz (n=5)	O'SOK YQTKSHvR bilan(n=34)
1.	Bo'g'ilish	Gacha	2,2±0,2	2,4±0,1	2,2±0,2	2,5±0,1
		Keyin	1,8±0,2*	1,9±0,2**	1,9±0,2*	2,0±0,2**
2.	Yo'tal	Gacha	2,1±0,2	2,2±0,1	2,2±0,2	2,3±0,1
		Keyin	1,7±0,2*	1,6±0,2**	1,8±0,2*	1,7±0,2**
3.	Xansirash	Gacha	2,2±0,2	2,3±0,1	2,2±0,2	2,5±0,1
		Keyin	1,8±0,2*	1,8±0,2**	1,9±0,2*	2,1±0,2*
4.	Xavo yetishmaslik hissi	Gacha	2,0±0,1	2,1±0,1	2,3±0,2	2,4±0,2
		Keyin	1,7±0,2*	1,7±0,2*	1,9±0,2*	2,0±0,2*
5.	Ko'krak qafasida og'riq	Gacha	2,0±0,1	2,1±0,1	2,2±0,2	2,3±0,3
		Keyin	1,9±0,2*	1,8±0,2*	1,9±0,2*	2,0±0,2*
6.	Bosh og'rig'i	Gacha	2,1±0,1	2,2±0,2	2,2±0,1	2,3±0,2
		Keyin	1,7±0,2*	1,7±0,2**	1,8±0,2*	2,0±0,2*
7.	Bosh	Gacha	2,0±0,2	2,1±0,1	2,2±0,2	2,3±0,1

	aylanishi	Keyin	1,9±0,2*	1,6±0,2*	1,9±0,2*	2,0±0,2*
8.	Yurak urishi	Gacha		2,2±0,2		2,4±0,2
		Keyin		1,5±0,2*		2,0±0,2*
9.	Yurak soxasida og'riq	Gacha		2,1±0,2		2,2±0,1
		Keyin		1,7±0,2*		1,9±0,2*
10.	Umumiy holsizlik	Gacha	2,2±0,2	2,3±0,2	2,3±0,2	2,4±0,2
		Keyin	1,7±0,2**	1,8±0,2**	1,9±0,2*	1,9±0,2**

**Eslatma:** davolanishdan oldin va davolanishdan keyingi taqqoslash bo'yicha ishonchlilik: \*p<0,05; \*\*p<0,01.

O'SOKni YQTKSHvR siz o'rtacha og'ir kechishida bemorlarda davolashdan keyin xansirash 18,2% (2,2±0,2 dan 1,8±0,2 gacha), YQTKSHvR bilan bo'lganda 21,7% (2,3±0,1 dan 1,8±0,2 gacha) kamaydi. O'SOK ni YQTKSHvR siz og'ir kechishida bemorlarda davolashdan keyin xansirash 13,6% (2,2±0,2 dan 1,9±0,2 gacha), YQTKSHvR bilan bo'lganda 16% (2,5±0,1 dan 2,1±0,2 gacha) kamaydi.

Ushbu o'zgarishlar respirator simptomlarni kamaytirishda YQTT tomonidan funktsional o'zgarishlarni korrektsiya qilish kerakligini ko'rsatadi.

O'SOK o'rtacha og'ir kechishi YQTKSHvR bilan bo'lganda davolashdan keyin 31,8% (2,2±0,2 dan 1,5±0,2 gacha), O'SOK og'ir kechishida 16,7% (2,4±0,2 dan 2,0±0,2 gacha) yurak o'rishini kamayishi ko'zatildi.

O'SOK o'rtacha og'ir kechishi YQTKSHvR bilan bo'lganda davolashdan keyin 19% (2,1±0,2 dan 1,7±0,2 gacha), O'SOK og'ir kechishida 13,6% (2,2±0,1 dan 1,9±0,2 gacha) yurak soxasida og'riqni kamayishi kuzatildi. Bu o'zgarishlar YQTKSHvR bo'lgan O'SOK ni kompleks davolash YQTTda funktsional o'zgarishlar tuzatish samaradorligini ko'rsatadi.

Ko'mo'lyatif indeksni (KI) qiyosiy tahlil qilinganda O'SOKni YQTKSHvR bilan bo'lgan o'rta darajada kechishi (2,2±0,2) YQTKSHvR siz bo'lgan o'rta darajada

kechishi ( $2,1+0,2$ ) ustidan nafas olish simptomlari bo'yicha KI ning ustunligi aniqlandi. Bundan tashqari, O'SOKni YQTKSHvR bilan bo'lgan og'ir darajada kechishi ( $2,4+0,2$ ) YQTKSHvR siz bo'lgan og'ir darajada kechishi ( $2,2+0,2$ ) ustidan respirator simptomlari bo'yicha KI ning ustunligi ham mavjud.

YQTKSHvR simptomlari bo'yicha kumulyatif indeksi tahlil qilinganda YQTKSHvR bilan O'SOK og'ir darajali kechishi ( $2,3+0,2$ ) YQTKSHvR bilan O'SOK o'rtacha og'ir darajali kechishi ( $2,1+0,2$ ) ustidan ustunligi aniqlandi.

O'SOKdagi umumi simptomlar bo'yicha YQTKSHvR bilan ( $2,2+0,2$ ) o'rtacha og'ir darajali kechishi YQTTKO' siz ( $2,0+0,2$ ) o'rtacha og'ir darajali kechishidan ustunligi aniqlandi.

O'SOK da YQTKSHvR bilan birgalikda kechgan bemorlarni davolashgacha klinik tekshirishlaridan olingan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkin, YQTKSHvR bilan O'SOK rivojlanishi patogenezida O'SOK kasalligi jarayonida yurakdagi patologik o'zgarishlar muhim rol o'ynaydi va yurak-qon tomir tizimidagi o'zgarishlar qanchalik aniq ifodalanishi O'SOKni shunchalik og'irligini aniqlaydi.

YQTKSHvR bilan va YQTKSHvR siz O'SOK bemorlarida klinik simptomlarni solishtirilganda YQTKSHvR bilan bo'lgan bemorlarda yanada ifodalangan simptomlari aniqlanadi. Eng muhim farqlar respirator simptomlarining intensivligida kuzatiladi. Klinik simptomlari orasida 18 (30%) hollarda yurak urishi, 6 (10%) hollarda koronar yurak og'rig'i, 21 (35%) hollarda bosh og'rig'i, 6 (10%) hollarda bosh aylanishi mavjudligi yurak-qon tomir tizimida funktsional o'zgarishlar borligini ko'rsatadi. Bu belgilarni O'SOK o'rtacha og'irligida 28% va og'ir darajasida - 35% hollarda kuzatildi

Umumi qon taxlili ko'rsatkichlarini davolashdan so'ng qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, eritrotsitlar, gemoglobin va rang ko'rsatkichlari o'zgarmaganligini, har ikki guruhda ham qondagi leykotsitlar soni kamayishga moyilligini ko'rsatdi: - YQTKSHvR bo'limgan O'SOK bemorlarida ( $5,7 + 0,4$ , qarshi  $5,1+0,5$ ) va YQTKSHvR bilan O'SOK bemorlarida ( $5,7 + 0,23$ , qarshi  $5,3+0,15$ ). Tayoqcha yadroli chapga siljishi turli yunalishli tendentsiyaga ega: YQTKSHvR bo'limgan O'SOK kasalliklarida oshishi ( $4,4$

+ 0,7, qarshi 5,1+0,7), YQTKSHvR bilan O'SOK kasalliklarida (5,5 + 0,49, qarshi 4,5+0,36) kamayishi ko'zatildi.

Segment yodroli neytrofillarga nisbatan ifodalangan o'zgarishlar ko'zatilmadi. Davolashdan keyin qonda limfotsitlar soni har ikki guruhda ham sezilarli darajada oshdi (22,6+2,0, qarshi 25,0+2,5 va 26,8+1,32, qarshi 27,1+1,12). Biroq, monotsitlar soni, aksincha, kamayishga tomon ijobiy dinamikani (4,3+0,4, 4,1+0,8 qarshi va 5,4+0,35 , 4,7+0,28 ga qarshi) ko'rsatdi. ECHT davolashdan keyin har ikki guruhda bir oz kamaydi(16,6+3,7, qarshi 13,5+3,8 va 13,7+1,21, qarshi 12,5+0,87).

Davolashdan oldin va keyin ikkala guruhning umumiy siylik tahlilini qiyosiy tahlil qilishda leykotsitlar, oqsil, siylikning nisbiy zichligi ko'rsatkichlarining pasayishi bilan ifodalangan ijobiy dinamika aniqlandi.

Balg'amni tahlil qilish, qiyosiy jihatdan, davolanishdan keyin balg'amdagi leykotsitlar sonining pasayishi aniqlandi, bu yallig'lanish jarayonining kamayishini ko'rsatadi (O'SOK YQTKSHvR sizda 40,0+7,6, qarshi 12,6+1,3 va O'SOK YQTKSHvR bilan 48,2+4,7, qarshi 19,9+1,9 ).

## **4-BOB. Bronxo-o'pka va yurak-qon tomir tizimining funksional parametrlarini o'rganish.**

O'SOK da YQTKSHvR bo'lgan bemorlarda davolanishdan oldin va keyin TNF ko'rsatkichlarining dinamikasini tahlil qilishda (6-jadvalga qaralsin.) O'TS  $63,04 \pm 14,17$  dan  $63,77 \pm 14,13$  ( $p < 0,001$ ) gacha ko'tarildi, MO'V ham  $52,37 \pm 16,28$  dan  $57,45 \pm 16,14$  ( $p < 0,001$ ) ga ko'tarildi. JNCHX<sub>1</sub> ko'rsatkichlari  $54,50 \pm 12,35$  dan  $59,9 \pm 12,35$  ( $p < 0,001$ ) gacha normallashdi.

### **4.1-Jadval**

#### **O'SOK bemorlarida davolashdan oldin va keyin tashqi nafas funktsiyasining ko'rsatkichlari**

TNF ko'rsatkichlari	Nazorat guruxi	O'SOK YQTKSHvR siz (n=12)		O'SOK YQTKSHvR bilan (n=48)	
	(n=20)	davolanishdan oldin (n=12)	davolanishdan keyin (n=12)	davolanishdan oldin (n=48)	davolanishdan keyin (n=48)
O'TS	$96,85 \pm 1,52$	$61,75 \pm 10,97^{***}$	$65,00 \pm 10,93^{***}$	$58,34 \pm 14,17^{***}$	$63,77 \pm 14,13^{***}$
MO'V	$99,23 \pm 1,77$	$54,75 \pm 12,54^{***}$	$56,49 \pm 14,58^{***}$	$52,37 \pm 16,28^{***}$	$57,45 \pm 16,14^{***}$
JNCHX <sub>1</sub>	$81,3 \pm 1,91$	$59,13 \pm 10,75^{**}$	$62,8 \pm 10,62^{**}$	$54,50 \pm 12,35^{***}$	$59,9 \pm 12,35^{***}$
NS	$16,1 \pm 0,8$	$22,75 \pm 1,00^{***}$	$18,38 \pm 0,26^{***}$	$23,06 \pm 0,53^{***}$	$18,50 \pm 0,16^{***}$

**Eslatma:** nazorat guruhi va davolanishdan oldin ishonchliklilik: \* -  $p < 0,05$ ; \*\* -  $p < 0,01$ ; \*\*\* -  $p < 0,001$  - nazorat guruhiga nisbatan ko'rsatkichlar farqlarining ishonchliligi; +++ -  $p < 0,001$  – davolashdan oldin va keyin ko'rsatkichlar o'rtasidagi ishonchlilik.

Bu o'pkaning ventilyatsiya funktsiyasini va bronxial o'tkazuvchanlikni yaxshilashni ko'rsatadi. Binobarin, O'SOK bemorlarida YQTKSHvR bilan bo'lganda YQTKSHvR ni davolash natijasida ayniqsa, qo'zish bosqichda respirator simptomlari kamayadi.


O'SOK bemorlarida YQTKSHvR bilan bo'lganda tashqi nafas olish funktsiyasi

ko'rsatkichlari qo'yidagi shaklda yaxshilandi: JNCHX<sub>1</sub>-5,4%, MO'V -5%, O'TS -5,4%. O'SOK YQTKSHvR sizda esa: JNCHX<sub>1</sub>-3,6%, MO'V -3,2%, O'TS -3,2%.

Bronxial o'tkazuvchanlik ko'rsatkichlarini yaxshilanishi-  $\beta$ -adrenoblokator bisoprolol va metabolik tivortin qabul qilish fonida JNCHX<sub>1</sub>, MO'V ning oshishi O'SOK birgalikda patogenetik terapiyasi fonida traxeobronchial o'tkazuvchanlikning yaxshilanishiga bog'liq. Yurakning nasos faoliyatini yaxshilash va bronxoobstruktiv komponentni bartaraf etish kompleks xolda yuzaga kelish xisobiga o'pkaning hayotiy sig'imini ko'rsatkichlari yaxshilandi.

O'SOK bilan xasta bemorlarda dori vositalarini orqali gemodinamika buzilishlarini tuzatish bilan YQTKSHvR bilan O'SOK bemorlarida nisbiy ijobiy dinamikani qayd etildi: YQTKSHvR siz O'SOK bemorlariga TNF ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda O'TS – 2,2%; MO'V -1,8%; JNCHX<sub>1</sub>- 1,8% yuqori bo'ldi.

Barcha guruhlardan O'SOK bo'lgan bemorlar Medical Research Council (MRC) Dyspnoea Scale xansirash shkalasi yordamida nafas qisishni ifodalanish darajasiga ko'ra taqsimlangan (4.1-rasmga qaralsin).



**4.1-rasm. Tekshirilgan bemorlarni nafas qisishi og'irligi bo'yicha bemorlarning taqsimlanishi (davolash boshlanishidan oldin).**

Olingen ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, O'SOK bemorlarining eng ko'p nafas qisilishi soni o'rtacha og'irlikdagida (O'SOK bilan YQTKSHvR -20 kishi 41,6% va O'SOK siz YQTKSHvR -4 kishi 33,3%) aniqlandi, bu esa shu yoshdagi bemorlarni sekinroq yurishga majbur qiladi. Og'ir nafas qisilishi bemorlarning taxminan har 100 metrga yurish paytida to'xtab qolishiga sabab bo'lishi birinchi guruhdan 12 bemorda (25%) va ikkinchi guruhdan 2 bemorda (16,67%) aniqlandi. 10 bemorda uydan tashqariga chiqishga yo'l qo'ymaydigan yoki kam jismoniy zo'riqishlar (kiyim-kechak kiyish) va tinchlikda paydo bo'ladigan juda og'ir darajadagi nafas qisilishi aniqlandi (20,8%). YQTKSHvR siz O'SOK ikkinchi guruhida juda og'ir darajadagi nafas qisilishi aniqlanmadи. 6 bemorlarida O'SOK bemorlarining 2 guruhidan jadal sur'atda (50%) yurish paytida paydo bo'lgan engil nafas qisilishi aniqlandi. 1 guruhidagi bemorlarda engil darajali nafas qisilishi 6 kishida (12,5%) ko'zatildi.

Bizning fikrimizcha, nazorat guruhidagi bemorlarda og'ir va juda og'ir darajadagi nafas qisilishi yo'qligi, bu kasallikning kichik staji va O'SOK ga xavf omillari ta'sir davomiyligining nisbatan qisqa muddatliligi bilan bog'liq.

Shunday qilib, YQTKSHvR bilan O'SOK kasalliklarida nafas qisilishi darajasи YQTKSHvR siz O'SOK bemorlarga nisbatan ancha og'ir o'tadi.

## **9 jadval**

### **O'SOK YQTKSHvR bilan va ularsiz bemorlarda pulsoksimetriya ko'rsatkichlarini tahlili.**

Ko'rsatkichlar	O'SOK YQTKSHvR siz		O'SOK YQTKSHvR bilan	
	Davolashdan oldin	Davolashdan keyin	Davolashdan oldin	Davolashdan keyin
O'rt SpO <sub>2</sub> %	92,1± 7,9	93,8±8,2	86,2 ±7,8	87,3 ±8,4
Ps 1 min	88± 14	78 ±10	90± 18	75± 12

YQTKSHvR bilan O'SOK kasalliklarida pulsoksimetriya ko'rsatkichlarining dinamikasini tahlil qilinganda davolanishdan oldin va davolanishdan keyin (9 jadval.) o'rt SpO<sub>2</sub> % 86,2 +7,8 dan 87,3 +8,4 ( $p<0,001$ ) gacha ko'tarildi.

Rentgenologik tekshiruvda barcha bemorlarda surunkali bronxit aniqlandi.

Barcha bemorlarga elektrokardiografik (EKG) tekshirishlar o'tkazildi. Engil darajali O'SOK bilan xasta bemorlarda EKG tekshiruvi normadan chetga chiqish aniqlanmadi. EKG o'zgarishlarida ko'p uchraydigan belgilari O'SOK o'rtacha va og'ir darajasiga ega bemorlarda ko'zatildi. Ritm buzilishi bo'yicha qo'yidagi ko'p o'chraydigan turlari: 16 bemorda sinus taxikardiyasi, 10 bemorda sinus aritmiya, 3 bemorda sinus bradiaritmija, 3 bemorda sinus bradikardija, 4 bemorda supraventriküler ekstrasistoley va 3 bemorda paroksismal taxikardija qayd etildi. O'SOK bilan xasta bemorlarda aritmiyalar turli mexanizmlarda kelib chiqadi. Bulardan o'ng qorincha gipertrofiyasi asosiyalaridan biriga kiradi. Supraventrikulyar extrasistoliya ustunligi ehtimoli qorincha ektopik aritmiyasi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi O'SOK da parasempatikotoniya joyini mavjudligi bilan bog'liq bo'lib,  $\beta$ -adrenoreseptorlarni stimulyatciyasi sinus tugunida adrenalin kontsentratsiyasi mahalliy o'sishiga yordam beradi shuningdek, atrioventrikulyar tugun orqali impulslar utkasilish tezligini va supraventrikulyar aritmiya yuzaga kelish xavfini oshiradi.

Giss tutamining o'ng oyog'ining qisman blokadasi - 14 ta bemorda va Giss tutamining chap oyoq old qismining blokadasi-2 ta bemorda aniqlandi. O'SOKda o'tkazuvchi tizimning bunday buzilishi bo'g'ilish xuruji vaqtida ko'krak ichi bosimining o'zgarishi natijasida bo'l macha-qorincha dissinergiyasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'pka gipertenziya simptomlari – yurakning o'ng qismidagi zo'riqishlar 32 bemorda va P-pulmonalning mavjudligi 4 bemorda aniqlandi. Repolarizatsiya jarayonlarini kamayishi - 12 ta bemorda, o'rtacha bo'lishi 10 ta bemorda va repolarizatsiya jarayonlarining diffuz pasayishi-8 ta bemorda, tishlarning voltajini pasayishi 6 ta bemorda kuzatildi. EKG tomonidan yuqorida ko'rsatilgan barcha o'zgarishlar O'SOK uchun xarakterlidir.

Chap qorinchani elektr faolligi oshishi - 24 ta bemorda, chap qorincha gemodinamik zo'riqish simptomlari-22 ta bemorda va yurak chap qorincha gipertrofiyasi-16 ta bemorda ko'zatilishi O'SOK bilan xasta bemorlarda arterial gipertoniya borligini, bu esa xamrox gipertoniya kasalligi mavjudligini ko'rsatadi.

O'SOK bilan xasta bemorlarda davolashdan so'ng EKG dinamikasida 12(75%) bemorda ritmni kamayishi, 10 (83,3%) bemorda ritmni tiklanishi, 11 (68,75%) bemorda o'tkazuvchanlik tiklanishi, 8 (66,6%) bemorda repolarizatsiya jarayonlarini yaxshilanishi, 28(87,5%) bemorda yurak o'ng qismlarida zo'riqishni kamayishi, 17 (70,8%) bemorda chap qorincha elektr faolligini tiklanishi, 4 (66,7%) bemorda tishlarning voltajini ortishi qayd qilindi.

O'SOKdagi elektrokardiografiyadagi o'zgarishlarning dinamikasi nafaqat nafas olish yetishmovchiligi darajasiga, balki kichik qon aylanish doirasida gipertenziya va kasallikning og'irlik darajasiga bog'liq. O'SOK bilan xasta kasallarda YQTT ning funktsional o'zgarishlarini tahlil qilish uchun biz ekokardiyografik (EchoKG) tekshirishlar o'tkazdik. Ushbu natijalar 10 jadvalda aks ettirilgan.

## Jadval 10

### **O'SOK bilan xasta bemorlarda ekokardiyografik tekshirish ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar	Nazorat guruxi (n=20)	2 gurux	1 gurux
			O'SOK YQTKSHvR siz (n=12)	O'SOK YQTKSHvR bilan (n=48)
1.	Aorta, sm	3,09±0,03	3,20±0,09 <sup>□</sup>	3,28±0,08*•
2.	Chap bo'l macha, sm	3,07±0,13	3,21±0,11 <sup>□</sup>	3,26±0,08*•
3.	Oxirgi sistolik hajmi, sm	3,45±0,08	3,58±0,10 <sup>□</sup>	3,58±0,11•
4.	Oxirgi diastolik hajmi, sm	4,42±0,11	4,59±0,17 <sup>□</sup>	4,97±0,14*••
5.	Qon haydash fraktsiyasi, %	61,20±0,49	59,80±1,27 <sup>□</sup>	56,24±1,38*•••
6.	Zarba hajmi, ml	62,60±2,79	67,80±3,26 <sup>□</sup>	60,91±2,76*••
7.	Qorinchalararo to'siqning qalinligi, sm	0,85±0,02	0,87±0,02 <sup>□</sup>	0,97±0,02*•••
8.	Chap qorincha orqa devorining qalinligi, sm	0,95±0,02	0,98±0,01 <sup>□</sup>	1,07±0,02*•••
9.	O'ng qorincha, sm	2,00±0,03	2,10±0,06 <sup>□</sup>	2,27±0,06*••
10.	Aorta klapan ochilish amplitudasi	1,53±0,08	1,47±0,09 <sup>□</sup>	1,67±0,04*••
11	O'AO'B, mm rt.st.	17,2±4,8	24,4±1,6	27,02±1,18

\* -  $p > 0,05$ ; • \* -  $p < 0,05$ ; \* \* \* -  $p < 0,001$ -1 ni 2 guruhga nisbati bo'yicha ishonchlilik.

\* -  $p > 0,05$  1 guruhni nazorat guruxiga nisbati bo'yicha ishonchlilik; \* \* -  $p < 0,05$  1 guruhni nazorat guruxiga nisbati bo'yicha ishonchlilik.

\* -  $p > 0,05$  2 guruhni nazorat guruxiga nisbati bo'yicha ishonchlilik; □ □ -  $p < 0,05$  2 guruhni nazorat guruxiga nisbati bo'yicha ishonchlilik.

Ushbu jadvalda gipertrofiya aniqlanmagan YQTKSHvR bo'lмаган O'SOK bemorlarga nisbatan solishtirganda 48 nafar YQTKSHvR bo'lган O'SOK bemorlardan 16 nafarida chap qorincha miyokard gipertrofiyasi aniqlandi. Bu O'SOK bilan xasta bemorlarda EkoKG tekshiruvida miyokard gipertrofiyasini erta bosqichlarda aniqlash imkonini beradi. Ikkinci o'rinda I (birinchi) darajagacha miyokardning qisqarish funktsiyasining pasayishi YQTKSHvR bo'lган O'SOK bilan xasta 10 nafar bemorda ushbu o'zgarish qayd etilmagan guruhga nisbatan qayd etildi.

YQTKSHvR bo'lган O'SOK bilan xasta 17 nafar bemorda aortada aterosklerotik o'zgarishlar, 7 nafar bemorda aortaning qalinlashishi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichlar YQTKSHvR bo'lмаган O'SOK guruxida oshadi.

Umuman olganda, O'SOK bemorlarda YQTKSHvR bilan birgalikda kelganda ko'proq miyokard gipertrofiyasi va qisqarish funktsiysi tomonidan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi. Bundan tashqari, YQTKSHvR bo'lган O'SOK bilan xasta bemorlarda aortada aterosklerotik o'zgarishlar aniqlandi. 12 nafar YQTKSHvR bo'lмаган O'SOK bemorlardan 2 nafar bemorda aniqlangan guruxga nisbatan solishtirganda 48 nafar YQTKSHvR bo'lган O'SOK bemorlardan 5 nafarida mitral qopqoq prolapsasi aniqlandi. YQTTKO' bo'lган O'SOK bilan xasta bemorlarni 16 nafarida taxikardiya qayd etilgan.

10-jadvalni tahlil qilinganda, taqqoslash guruhlariga qaraganda nazorat guruhida ekokardiyografiya va dopplerografiyani barcha ko'rsatkichlari past ekanligini ko'rsatdi.


Ko'proq ifodalangan farqlar quyidagi ko'rsatkichlarda aniqlandi: aortaning o'lchamlari ( $3,28+0,08$  va  $3,20+0,09$ ), chap bo'lchaning o'lchamlari ( $3,26+0,08$  va  $3,21+0,11$ ), oxirgi diastolik hajmi ( $4,97+0,14$  va  $4,59+0,17$ ), qorinchalararo to'siqning

qalnligi ( $0,97+0,02$  va  $0,87+0,02$ ), chap qorincha orqa devorining qalnligi ( $1,07+0,02$  va  $0,98+0,01$ ), o'ng qorincha o'lchami ( $2,27+0,06$  va  $2,1+0,06$ ), o'pka arteriyada o'rtacha bosim ( $27,02+1,18$ ) va amplituda ko'rsatkichlari ( $1,67+0,04$  va  $1,47+0,09$ ). O'SOK og'irligini kuchayib borishi bilan bu ko'rsatkichlar yomonlashdi.

YQTKSHvR bo'lgan O'SOK bilan xasta bemorlarda yurak ichi gemodinamika o'zgarishlari quyidagicha ifodalandi: chap qorincha gipertrofiyasi shakllanishi - $25,3\%$ , chap bo'l macha kattalshishi- $6\%$ , yurak o'ng qismida zo'riqish – 32 holatda va P-pulmonale mavjudligi 4 holatda, o'ng qorincha hajmini kattalshishi –  $35\%$ , qon haydash fraktsiyasini kamayishi- $9\%$ . O'pka arteriyada bosimning oshishi o'pka gipertenziya rivojlanishini ko'rsatadi va bu surunkali o'pka yurak va o'ng qorincha yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladi. O'SOK mavjudligi yoki yo'qligidan qat'iy nazar barcha guruhlardagi bemorlarda o'pka arteriyasida bosimining o'rtacha ko'rsatkichi  $22\text{ mm sm ust.}$  dan oshib ketdi. O'pka arteriyasida bosimning eng katta qiymati 1 guruhidagi bemorlarda (YQTKSHvR bo'lgan O'SOK) qayd etildi.

### **Tekshirilgan bemorlarning o'pka arteriyasida qon oqimi ko'rsatkichlari**

O'pka arteriyasida gemodinamikasining holati impulsli doppler rejimidagi EkoKG yordamida o'rganildi



**3-rasm. Tekshirilgan bemorlarda o'pka arteriyasi gemodinamik ko'rsatkichlari**

O'pka arteriyasida qon oqimining asosiy ko'rsatkichi o'rtacha bosim xisoblanadi. Bizning ma'lumotimizga ko'ra, sog'lom shaxslar bilan solishnirilganda I gr. O'SOK bilan xasta bemorlarda 57,1% ( $p < 0,01$ ) va O'SOK II gr – 41,8% ( $p < 0,01$ ) o'pka arteriyasidagi bosimning ishonchli darajada oshishi kuzatildi. Olingan ma'lumotlar o'pka arteriyasi biomexanikasining buzilishlarini tasdiqlaydi va o'rtacha o'pka gipertenziysi xaqida ma'lumot beradi.

Bizning tadqiqotlar asosida YQTKSHvR bo'lgan O'SOK bilan xasta bemorlarda ekokardiyografiyanı asosiy ko'rsatkichlari YQTKSHvR bo'lman O'SOK bilan xasta bemorlarga nisbatan farq qildi. Bu YQTT tomonidan xamrox patologiya mavjud bo'lishi va O'SOK xarakterli o'pka gipertenziya bilan bog'liq.

Ekokardiyografiya ko'rsatkichlarining yaxshi ifodalanganligi YQTT patologiyasi bo'lgan bemorlarda O'SOK ni kechish og'irligini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlar O'SOK og'irligini kuchayib borishi bilan yomonlashdi.

O'SOK' bilan kasallanishni o'rganish natijalari YQTKSHvR bilan birga O'SOK chalingan bemorlarda kasallik og'ir utishini tasdiqlaydi. YQTT ning patologiyasi ko'pincha O'SOK fonida tashxis qo'yilgan.

O'SOKda farmakoterapiyaga bo'lgan ehtiyoji qarab klinik, nafas olish simptomlari o'zgarishi, funktsional, laboratoriya va instrumental ko'rsatkichlarning dinamikasini baholashni amalga oshirdik.

Ish jarayonida YQTKSHvR bo'lgan O'SOKni davolash samaradorligini ob'ektiv baholash amalga oshirildi. Dori-darmonlarni tanlash mezonlari, uning samaradorligi O'SOK kasalliklarida YQTKSHvR ning farmakologik kompensatsiyasi asosida baholandi.

Kasallikning qo'zishi vaqtida bazis terapiya qo'llashga yunaltirilgan o'qitish tadbirlarni tayyorlash maqsadida bemorlar uchun ta'lim dasturi o'tkazildi.

O'SOK engil kechishi bo'lgan bemorlarda antiretsidiv terapiya natriy kromoglikat bilan amalga oshirildi. O'SOK xurujlari sodir bo'lganda epizodik ingalatsiyon  $\beta_2$ -

agonistlar qo'llanildi.

